

Yorqin payshanba - yorqin bayramlar

2023 30 Avgust

Yoz faslining oxiri, 31-avgust kuni Uzbekistan Airways “Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida Toshkentdan Blagoveshchensk, Grozniy, Jakarta, Omsk va ortga qaytuvchi yoʻnalishlarning parvozlari jadvali tugagunga qadar aviachiptalar tariflari narxiga 20% chegirma eʼlon qiladi. Aviachiptalarni chegirma bilan sotib olishga shoshiling va kuzgi sayohatingizni rejalashtirishni boshlang!

Chegirma faqat bir kun, 31-avgust soat 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi va yuqoridagi barcha reyslarga taalluqlidir!

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 31-avgust soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha boʻlgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yigʻimlarga nisbatan qoʻllanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 31.08.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qoʻllanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (yaʼni chegirma qoʻllanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qoʻllanilgan tarif qoidalarini bilan belgilanadi, aviachiptalarni eʼlon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Blagoveshchensk, Grozniy, Jakarta, Omsk va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

“Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.